

XARAKTERNING SHAXSNING IQTISODIY YO'NALGANLIKDAGI AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14501976>

Ismoilova Dilso'z Doniyor qizi

Nizomiy nomida TDPU

Tayanch doktoranti va "Amaliy psixologiya" kafedrasi stajor-o'qituvchisi

Annotatsiya

Ma'lumki, bugungi kunda butun dunyo bozor iqtisodiyotida yashamoqda. Bu holat nafaqat iqtisod shu bilan bir qatorda xalqaro munosabatlardan tortib, mahalliy munosabatlarga hattoki, shaxslarning shakllanishi, ularning individual xususiyatlari, xarakteri, qiziqishi, ehtiyoji, e'tiqodi va yana bir qator xususiyatiga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada biz aynan hozirgi davrda shaxslarning iqtisodiy yo'nalganli va unga xarakterning ta'sirini ko'rib chiqamiz.


Kalit so'zlar

Yo'nalganlik, xarakter, introvert, ekstrovert, qiziqish, faollik, ehtiyoj, dunyoqarash.

Kirish. Iqtisodiy qarashlarda an'anaviy holda iste'molchining ma'lum talabiga e'tibor qaratadi. Biroq, tadqiqotchilar insonning iqtisodiy sohadagi xatti-harakatlari ko'p jihatdan nafaqat aniq sabablar, balki psixologik omillar, jumladan, xarakter xususiyatlari bilan belgilanganligini ta'kidlamodalar. Xarakter, barqaror individual xususiyatlarning yig'indisi sifatida, insonning iqtisodiy yo'nalishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada biz turli xil xarakter xususiyatlarining iqtisodiy qarorlar qabul qilish, kasb tanlash va tadbirkorlik faoliyatiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz.

Shu bilan bir qatorda quyidagi holatni ham ko'rib chiqishimiz lozim: Zamonaviy jamiyat yuqori darajadagi iqtisodiy erkinlik bilan ajralib turadi, bu esa insonga keng tanlov imkoniyatlarini beradi. Biroq, barcha odamlar bu imkoniyatlardan teng darajada foydalanmaydi. Nima uchun shunday bo'ladi? Bu savolga javob ko'p jihatdan insonning individual xususiyatlari, uning xarakteriga bog'liq. Ushbu maqolada biz motivatsiya, maqsadga yo'nalganlik, xavfga moyillik kabi xarakter xususiyatlari qanday qilib iqtisodiy muvaffaqiyatga va hayot yo'lini tanlashga ta'sir qilishini ham ko'rib chiqamiz.

Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. Shaxsning xarakteriga tegishli bo'lgan xususiyatlarni xarakter xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo'lmay, balki kishining xulqidagi doimiy, barqaror xususiyatlar bo'lib, bu xususiyatlar shaxsning o'zigagina xos bo'ladi. [2]



Xarakter kishi shaxsining yo'nalganligini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Jumladan, kishining kishi tomonidan sotsial ekspluatatsiya qilinishiga asoslanadigan jamiyatda, masalan, hukmron sinflar vakillarining sotsial pozitsiyasi ular xarakterida takabburlik, kekkayganlik, riyokorlik, ta'magirlik, munofiqlik va hokazolarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Psixologiya fani o'z nazariy va amaliy ishlarida kishi xarakterida namoyon bo'ladigan ana shu «tug'ma dog'lari»ni muhokama qilishni puxta va ustalik bilan chetlab o'tadi. Xarakterning shakllanishi shaxsning rivojlanish darajasiga ko'ra xilma-xil guruhlariga mansub turli xildagi sharoitlar bilan qo'shilgan holda (oilada, do'stlar davrasida, mehnat yoki o'quv jamoasida va shu kabilarda) yuz beradi. Uning uchun referent bo'lgan guruhda shaxsning individuallashuvi qanday amalga oshayotgani va unda shaxslararo munosabatlarning rivojlanganlik darajasi qandayligiga bog'liq holda, masalan, o'spirinda bir xil holatda xarakterida ochiqlik, to'g'rilik, jasurlik, prinsipiiallik, qattiqqo'llik, boshqa bir holatda esa pinhoniylilik, yolg'onlik, qo'rqqoqlik, konformlilik, xarakterning bo'shligi shakllanishi mumkin.

Rivojlanish darajasi yuksak bo'lgan guruhdagi kabi jamoada xarakterning eng yaxshi xislatlarini rivojlantirish va mustahkamlash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Bu jarayon shaxsning jamoada optimal integratsiyasiga va kollektivning o'zi yanada rivojlanishiga yordam beradi. [1]

Professor V.N.Drujinin iqtisodiy xulq-atvorni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun imkon bo'lgan odamlarning xatti-harakati, shuningdek, ushbu qarorlarning determinantlari va oqibatlarida hisoblaydi.[3]

Iqtisodiy xulq-atvor turmush tarzi va iqtisodiy faoliyatning turli xil shakllanayotgan sharoitlarida fuqarolar, xodimlar, menejerlar va ishlab chiqarish jamoalarining iqtisodiy faoliyati xarakteri, qiyofasi, usul va vositalaridir. U yo'nalishlar va omillar bilan belgilanadi.[4]

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Shaxsning iqtisodiy yo'nalganligiga xarakterning ta'sirini o'rganish psixologiya, iqtisodiyot va sotsiologiya kabi bir nechta fan sohasini o'zaro bog'laydi. Bu sohada ko'plab olimlar o'z hissalarini qo'shgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos qarashlar bilan yondashgan.

Asosiy olimlar va ularning tadqiqot yo'nalishlari:

Gans Ayzenk temperament va uning insonning iqtisodiy xatti-harakatlariga ta'sirini o'rgangan olim hisoblanadi. Govard Gardner esa, ko'p qirrali intellekt nazariyasini ishlab chiqdi va turli intellekt turlarining iqtisodiy qaror qabul qilishga ta'sirini tadqiq qildi. Freyd, Yung, Adler kabi psixoanaliz asoschilari bo'lgan bu olimlar ong osti motivlarining insonning iqtisodiy xatti-harakatlariga ta'sirini o'rgandilar.

Biz esa hozir quyidagilarni ko'rib chiqamiz:

Ekstravertlar ko'pincha ijtimoiy investitsiyalarga, tarmoqlashishga va xavfli moliyaviy qarorlarga ya'ni tavakkalchilikka moyil bo'ladilar. Aynan iqtisodchilarning asosiy qismini ekstravertlar tashkil qiladi. Introvertlar esa, uzoq muddatli rejalashtirishga, o'zlariga investitsiya qilishga va ijtimoiy xatarlardan qochishga moyil bo'lishlari mumkin. Lekin, ularning o'z dunyolari bo'lib, ualrdan ko'proq ijodkor insonlar chiqadi. Ular o'z ishlarini ustalari bo'lishadi. Ular har bir ushni maromiga yetkazishadi.

Xulosa. Xarakterning iqtisodiy yo'naltirilganlikka ta'siri – bu psixologiya, iqtisodiyot va sotsiologiya sohalari kesishmasidagi murakkab masala. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim xarakter xususiyatlari bizning moliyaviy qarorlarimiz, maqsadlarimiz va xatti-harakatlarimizga jiddiy ta'sir etishi mumkin. Shaxs xususiyatlari va moliyaviy xatti-harakatlar: Masalan, ekstravertlar ko'pincha xatar va ijtimoiy investitsiyalarga moyil bo'lsa, introvertlar moliyaviy qarorlarida konservativroq bo'lishlari mumkin. Vijdonlilik yuqori darajadagi moliyaviy

savodxonlik va uzoq muddatli rejalashtirish bilan bog'liq. Materialistik qadriyatlar ortiqcha iste'molchilikni rag'batlantirishi mumkin, altruistik qadriyatlar esa ijtimoiy investitsiyalarga undashi mumkin.

ADABIYOTLAR.

1. Baratov Sh.R. Psixologiya nazariyasi va tarixi [Matn]; Darslik / Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – 504 b
2. M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya o'quv qo'llanma/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta masus ta'lim vazirligi - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. - 304 b.
3. В.Н.Дружинина. Психология: Учебник для экономических вузов / Под общей ред. -СПб.: Питер, 2000. -С. 486
4. И.А. Максимцев, Е.Н. Локшина, О.А. Бахрах Экономическое поведение и коррупция. Психология в экономике и управлении 2010